



PEDAGOGIK VA MALAKAVIY AMALIYOTLARNI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA ECHIMLAR

Aliyev I.T.

*Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Renessans ta'lim universiteti*

Tayanch so'zlar: pedagogik amaliyot, malakaviy amaliyot, "4+2" tartibidagi pedagogik amaliyot, amaliyotchi talaba, amaliyot o'tash joyi, tajribali ustozlarga birlashtirish, dars tahlili, darslarga kirish, ustozlarning darslarini o'rganish, dars o'tish, kalendar reja, uzluksiz nazorat, amaliyot hisoboti, hisobotning himoyasi.

Ключевые слова: педагогическая практика, квалифицированная практика, педагогическая практика в порядке «4+2», студент проактивист, место практики, прикрепление к опытным преподавателям, анализ уроков, доступ к урокам, изучение уроков учителей, проведение уроков, календарный план, постоянный контроль, отчет по практике, защита отчета.

Key words: teaching practice, qualified practice, teaching practice in the "4+2" order, student proactive, practice location, assignment to experienced teachers, lesson analysis, access to lessons, studying teachers' lessons, conducting lessons, calendar plan, ongoing monitoring, practice report, report defense.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada Pedagogik va malakaviy amaliyot, "4+2" tartibidagi pedagogik amaliyotlarning hozirgi kundagi holati hamda mavjud muammolari ko'rib chiqiladi. Barcha turdagi pedagogik amaliyotlarni tartibga solish uchun qanday vazifalarni bajarish zarurligi asoslangan. Oliy o'quv yurtlarida pedagogik amaliyotlarni o'tkazish bo'yicha kerakli tavsiyalar taklif etilmoqda.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается педагогическая и квалификационная практика, современное состояние и существующие проблемы педагогической практики «4+2». В его основе лежит то, какие задачи необходимо решать для регулирования всех видов педагогической практики. Предложены необходимые рекомендации по проведению педагогической практики в высших учебных заведениях.

SUMMARY:

The article examines pedagogical and qualification practice, the current state and existing problems of pedagogical practice "4 + 2". It is based on what tasks need to be solved to regulate all types of pedagogical practice. Necessary recommendations for conducting pedagogical practice in higher education institutions are proposed.

Pedagogik va malakaviy amaliyot bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning mutaxassisni kasbiy tayyorlash tizimining asosiy va muhim bo'g'inidir. Aynan

amaliyotda talaba bo'ljak ish o'rni bilan yuzma-yuz keladi. Ushbu kasbga qiziqishi bor-yo'qligi, ushbu kasbning dastlabki tassavurlari natijasida vujudga keladi va to'g'ri kasb tanlaganligi yoki adashganligi to'g'risidagi birinchi qarorlar hamda xulosalar paydo bo'ldi. Shu sababdan ham amaliyotlar talab darajasida, juda tartibli o'tkazilishi shart va zarur. Talabaga bundan keyin hech qachon bunday o'rganish uchun imkoniyat bo'lmasligini va kelajakda bu bilim, ko'nikmalar juda ham unga qo'l kelishini tushuntirish juda muhim hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida amaliyotlarga munosabat yangi vaqt me'yorlari qabul qilingan so'ng o'zgardi ya'ni professor-o'qituvchining auditoriya soatigagina haq to'lash tizimi joriy etilishi bilan kunning ikkinchi yarimida bajariladigan ishlar yuklamaga kiritiladi lekin haq to'lanmaydigan faoliyat turiga kiritildi. Natijada professor-o'qituvchilarda bu ishimizga haq to'lanmas ekan degan xulosa paydo bo'ldi va amaliyotga nazoratchi sifatida nomiga boradigan bo'ldi va buni amaliyotchi talabalar ham amaliyot o'tiliyotgan tashkilot ham tushunib yetdi. Ta'lim jarayonining eng muhim qismlaridan biri hisoblanadigan amaliyotlarga shunaqa qilib munosab o'zgardi. Hozirgi kunga kelib, amaliyotchi talablar amaliyot joylariga birlashtirilgan, lekin ularga o'rgatuvchi na amaliyot joyidan birlashtirilgan shaxs na OTM tomonidan birlashtirilgan professor-o'qituvchi yordam beradi. Faqat tayyor shablonlarni to'ldirish bilan talablarning umri bekor o'tadi. Xuddi shunday amaliyotchi talaba hisobot eng oddiy shaklga ya'ni nomiga hisobot shakliga keltirilgan. Bir necha bet qag'ozu va kundalikdan iborat. Himoya va uning saviyasi haqida bir narsa deyish ham qiyin masala.

Ma'lumki, pedagogik amaliyotlar tanishuv, o'quv, pedagogik va diplom oldi amaliyotlarga bo'linar edi. Har bir amaliyotning maqsad vazifalari har kil edi. Mana shu amaliyotga jaratilgan vaqt ham usha amaliyot uchun yetarli yoki yetarli emasligi mutaxassislik kafedrasida muhokama qilinar edi va keyin o'quv rejasiga kiritilish tavsiya qilinar edi. Afsus hozir amaliyotga beriliyotgan yuklanmalar hech bir talabga javob bermaydi. Bu jarayonga tajribali pedagoglar jalb etilishi, amaliyotning mazmun- mohiyatini tushunib yetadigan va har bir amaliyotda professor-o'qituvchi va amaliyotchi talaba qanday vazifalarni bajarishini tahlil qila oladigan professor-o'qituvchilar jalb etilmaganligi sababli ayirim mutaxassisliklarning o'quv rejasida amaliyotlarga 1,5-2 oy muddat beriliyabti. Juda muhim hisoblanga namaliyotlarga (masalan pedagogik amaliyotlarga) juda ham oz vaqt beriliyabti. Amaliyotning mazmun mohiyatiga tushunmaganlik sababli yeki umumiy hamma mutaxassislikka bir xil qilib yondashuv sababli shu holga kelib qoldik. Yana bir masala amaliyotchi talabaning kalendar rejasini ishlab chiqilmaganligi sababli ular nima qilishini



bilmasdan bo'sh qoliyabti. Natijada talaba nomiga kelib ketib yoki amaliyotga kelmaslik uchun bahona topish bilan shug'ullanadi. Amaliyot jarayoni haqidagi tassavurlar o'zgaradi. Talaba amaliyotni ta'lim jarayonidagi eng oson jarayon ekan deb tushunadi. Amaliyot yakuni bo'yicha qilinadigan hujjatlar ham amaliyotga qatnashmagan talaba uchun qiyinchilik to'g'risida amaliyot o'tash joyi ma'sullari uchun kerak emas daxmazaga aylanadi yoki korupsion elementlar vujudga keladi. Bo'lajak mutaxassisda ayniqsa shu sohada ishlayman degan talablarda bu jarayon xotirasida yomon iz qoldiradi. Mening bo'lajak ish joyimda ham xuddi shu holatlar yuz bersachi degan savol bilan amaliyot joyini tark etadi. Bundan tashqari amaliyotga kelmasdan baho olgan talaba bilan to'liq amaliyotga kelgan talaba bir xil baho olsa undan ham rasso holat yuzaga keladi.

Barcha amaliyotlarni talab darajasida o'tkazish, talabani har bir soatda qilishi kerak bo'lgan vazifalari ko'rsatilgan kalendar reja asosida amaliyot o'tash payti kelmadimi? Amaliyotga rahbar bo'lgan professor-o'qituvchi to'liq amaliyot paytida amaliyot joyida talabalar bilan birga bor imkoniyatni ishga solib ushbu amaliyot amaliyotchilarga ham ta'limiy, ham tarbiyaviy, ham ma'naviy yetuklikka erishish uchun zamin bo'lib xizmat qilishi kerak emasmi? Profesor-o'qituvchilarning asosiy yuklanmasiga ya'ni auditoriya soatiga amaliyot soati qachon tenglashtiriladi? Mana shu kabi savollar hozirgi amaliyot o'tayotgan talabalarni va ularga rahbarlik qilayotgan professor-o'qituvchilarni qiynaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21- iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ – 289- Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2 - 4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash vazifasi ko'rsatilgan edi.

Yuqorida Prezident Farmoni va Qarorida ko'rsatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida OTMlarida quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

1. Pedagog tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlari malaka talablari "4+2" ga moslashtirilgan yangidan ishlab chiqildi.

2. Pedagog tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari yangi talabalar asosida ishlab chiqildi.

3. Pedagog tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlari uchun "4+2" malakaviy amaliyoti dasturlari ishlab chiqildi.

4. Mos maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan shartnomalar tuzilgan.

Mazkur shakldagi pedagogik amaliyotni tashkil etishda ham juda ko'p kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Xuddi yuqorida ko'rib chiqqan holatimizdagidek, maktablarda amaliyotchi talabalarni tajribali ustozlarga birlashtirish juda ham achinarli holatda, ularning talablar bilan ishlashi ham o'ziga yarasha, OTM tarafidan birlashtirilgan professor-o'qituvchining ham o'quv yuklamasining ikkinchi ya'ni haq to'lanmaydigan qismiga kiritilganligi sababli u o'qituvchi ham faqat bo'sh vaqtlari amaliyot joyiga borishga imkoniyat topadi. U faqat amaliyotchilarning davomatingina nazorat qilishga ulgiradi. Ularga metodik yordam berish, darslariga kirish, darsni tahlil qilishni o'rgatish, darsdan keyin ushbu darsning muxokamasini o'tkazish, fan o'qituvchisining yoki amaliyotchi talabaning darsi o'tishdagi yutuq va kamchiliklarini sarhisob qilish kabi faoliyat turlari o'rgatilishi, amaliyotchi talabaning bir daqiqasi ham bo'sh bo'lmasligini ta'minlash masalasi haligacha ochiq.

Prezidentimiz talabalarining universitetda olgan bilimlarni shu haftaning o'zida amaliyotda sinab ko'rsin, o'z kasbiga o'qish paytida mehr qo'ysin, ta'lim muassasasidagi pedagogik faoliyatning real holatini tahlil qilib, shunga mos ravishda qurollanib borsin degan ma'noda bu qarorni qabul qilgan bo'lsa ajab emas. Pedagogik amaliyotlarni to'g'ri tashkil etish uchun qo'yidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

1. Amaliyot o'tashdan kamidan ikki oy oldin OTMsiga yaqin masaofadan amaliyot joyini sinchiklab o'rganib keyin talabalar soniga mos ravishda tanlash zarur.

2. Tanlangan ta'lim muassasasi bilan ikki tomonlama shartnoma tuzish kerak bo'ladi.

3. Tanlangan ta'lim muassasasi rahbariyati bilan shartnoma tuzilgandan keyin ular bilan birgalikda tajribali o'qituvchilar saralab olinadi.

4. Amaliyot o'tilishi rejalashtirilgan ta'lim muassasasi o'qituvchilari bilan birgalikda (ularning tavsiyalarini inobatga olgan holda) ta'limiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy, tashkiliy ishlar (to'g'rirog'i amaliyotchi talabaning kalendar rejasi muhokama qilinadi) kelshib olinadi.

5. Ikki tomonlama shartnoma asosida OTM professor-o'qituvchilari amaliyot o'tash joyida o'qituvchilar uchun mahorat darslari, seminarlar tashkil etishi tavsiya etiladi.



6. Amaliyotchi talabalarga amaliyotdan bir oy oldin amaliyotga borish to'g'risida OTM rahbarining bo'yrug'i tayyorlanishi va chiqarilishi kerak.

7. Amaliyot boshlanmasdan bir kun oldin amaliyot rahbarlari va kafedra mudiri ishtirokida konferensiya o'tkazilishi shart.

8. Amaliyot o'tash joyida amaliyotchi talabalar ta'lim muassasasi o'qituvchilarga biriktirilganligi va biriktirilgan o'qituvchilarning vazifalari ko'rsatilgan ta'lim muassasasining ichki bo'yrug'i rasmiylashtirilishi zarur.

9. Har bir talabaning amaliyot davomida qanday ishlarni (kuniga 6 soat) bajarishi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgan amaliyotchining kalendar rejasi ishlab chiqilib ushbu konferensiyada amaliyotchi talabalarga taqdim etilishi shart.

10. Darslarga kirish, ustozlarning darslarini o'rganish uchun har bir amaliyotchi talabaga individual reja ishlab chiqilishi kerak.

11. Har kuni amaliyot joyidagi ustozlarning va amaliyotchi talabalarning o'tkazgan darslari tahlil qilinishi shart.

12. Bundan tashqari amaliyot joyida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejalashtirilishi va o'tkazilishi nazoratga olinishi kerak.

13. Talablar tomonidan o'tkaziladigan ochiq darslarga tayyorgarlik ko'rish, tashkil etish va o'tkazish bo'yicha rejalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

14. Har kuni amalga oshirilgan ishlarni amaliyot kundaligiga rasmiylashtirish jarayoni ham o'rganilib borilishi amaliyotchi talaba tomonidan amaliyotning o'z vaqtida hisobot tayyorlanishiga amaliy yordam bo'ladi.

15. Amaliyot jarayoni birinchi navbatda amaliyot joydan biriktirilgan ustoz tomonidan tavsifnoma ko'rinishida baholanishini va ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlanishini ta'minlash kerak bo'ladi.

16. Amaliyot davomida yuritilgan asosiy hujjatlarning barchasi (o'qituvchining dars o'tish bo'yicha tayyorlagan choraklik tavqim rejasi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasi va boshqalar) ta'lim muassasasi tomonidan hisobotga kiritilishdan oldin tasdiqlangan bo'lishi shart.

17. Amaliyot davrida amaliyotchi talabalar tomonidan tashkil etilgan eng yaxshi tadbirlar markaziy nashrlarda yeki ta'lim muassasasining ijtimoy tarmoqlarida o'z aksini topishi zarur.

18. Amaliyot yakuniga ko'ra ta'lim muassasasida yakuniy konferensiya o'tkazilishi va unda ta'lim muassasasi rahbariyati, biriktirilgan ustozlar va kafedraning professor-o'qituvchilari ishtirok etishi va amaliyot jarayoni sarhisob qilinishi kerak bo'ladi va hamkorlikning keyingi bosqichlari



muhokama qilinadi hamda janbozlik ko'rsatgan a'lochi amaliyotchi talabalar va uarning ustozlari taqdirlanadi.

19. Mutaxassislik kafedrasida amaliyotchi talaba tomonidan hisobot taqdimot ko'rinishida himoya qilinadi va komissiya tomonidan baholanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish keraki:

Birinchiidan, pedagogik amaliyotlarning sifatini oshirish uchun o'qituvchining haq to'lanadigan yuklanmasiga yani auditoriya soati kabi hisoblanishi;

Ikkinchiidan, amaliyot rahbari sifatida ta'lim muassasasiga bo'yruq bilan birlashtirilgan professor-o'qituvchining usha ta'lim muassasasida 6 soat amaliyotga rahbarligini ta'minlash va amaliyot kunlari yeki amaliyot davrida auditoriya yuklamasidan ozod etilishi;

Uchinchiidan, amaliyot jarayoniga jalb etilgan har bir talabaning kalendar rejasining muntazam bajarishini nazorat qilish;

To'rtinchiidan, talabalar amaliyot o'tayotgan ta'lim muassasasida doimiy ravishda universitet ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari tomonidan uzluksiz nazorat qilinishi;

Beshinchiidan, talabalarning amaliyot yakuni bo'yicha hisobot himoyalari tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11-maydagi "2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ – 289- Qarori.
3. S.X.Sulliyeva., Q.G'.Zokirov., M.V.Mamadaliyeva. "Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish".monografiya.-kishinyov:GlobeEdit, 2021.-60 b.
4. B.N.Rizayev, H.M.Kobilova, Malaka amaliyotni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha metodik ko'rsatma / [Matn]: o'quv - metodik qo'llanma -Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023.- 48 b.
5. I.T. Aliev Pedagogik amaliyotni tashkil etish. –T.: "Fan va texnologiya".–2014.-56 b.
6. Rustamov L.X Uzluksiz pedagogic amaliyotni tizmashtirish. Metodik qo'llanma. Toshkent 2012 y.
7. B.X.Urazimbetova. Talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etishning ayrim dolzarb masalalari.// STARS International University. 173-182 b.